

SEMANTIK TIZIMDA MA'NO TURLARI: BOSH MA'NODAN TOBE MA'NOGA QADAR

Azamatova Sevinch Shuxrat qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Anotatsiya. *Mazkur maqolada leksik ma'nolarning so'z semantik tizimidagi o'zaro bog'lanishi va ularning tarkibiy tuzilishi tahlil qilinadi. Leksik birliklarda bosh ma'no, asos ma'no va tobe ma'nolarning o'zaro munosabati, ularning semantik ierarxiyadagi o'rni hamda genetik, etimologik, hosila va yasama ma'nolar bilan bog'liq jihatlari yoritiladi. Shuningdek, figural va bog'li ma'nolarning doimo tobe ma'no sifatida namoyon bo'lishi va ularning semantik tizimdagi maqomi hosila ma'nolarning shakllanish bosqichlari bilan belgilanilishi ilmiy asosda izohlanadi.*

Kalit so'z. *Leksik ma'no, bosh ma'no, asos ma'no, tobe ma'no, genetik ma'no, etimologik ma'no, hosila ma'no, yasama ma'no, semantik tizim, figural ma'no, bog'li ma'no*

KIRISH

Til va nutqning o'ziga xos bo'lgan ko'plab xususiyat va hodisalarini tilshunoslik jihatidan o'rganish so'zni ilmiy tadqiq etish bilan boshlanadi. Nutq birligi bo'lgan so'z nutq faoliyati bilan bevosita bog'lanadi, nutq jarayonida voqelanadi. Shuning uchun so'z nutq birligi, nutq "boyliqi" hisoblanadi. So'z real birlik, xususiylik, aniqlik sifatida mavjud bo'ladi. Boshqacha izohlaganda, "Leksema – til birligi tayyor va turlicha imkoniyatlar majmuasi bo'lsa, so'z uning voqelanishi, ro'yobga chiqishi, aniq shakl, mazmun va vazifa kashf etgan moddiy ko'rinishidir. Har bir leksema nutqda muayyan so'z sifatida namoyon bo'ladi".

Til inson tafakkur qobiliyatini shakllantiradigan va tinimsiz boyitadigan manba sifatida mashhur tilshunos olim Ferdinand de Sossyurning til haqidagi " Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar" – nutqning asosiy birligi sifatida ma'no ifodalovchi so'z va so'zlar ekanligini bir bor ta'kidlash zarur.

METADOLOGIYA

So'zning ma'no jihati haqida fikr bildirishdan avval, har bir tilda "ma'no" uchun keltirilgan izohlar va ularning talqin qilinishidagi farqlar mavjudligini, ayrim tillarda mazkur tushuncha ikki xil ma'noda qo'llanishi uchrasa, boshqa tillarda uch va undan ortiq


ma'noda ishlatilishini kuzatishimiz mumkin. Aytaylik, o'zbek tilida ushbu tushuncha quyidagicha izohlanadi: "Ma'no – [mazmun, tushuncha, g'oya] : 1. So'zning mazmun tomoni, so'z bilan ifodalangan tushuncha... 2. Ayn.mazmun. 3. Ba'zi xatti-harakat va shunga ko'ralardan anglashiladigan narsa, ifoda. Biror narsaning mohiyati, nima ekanligi; mohiyat" [1,18]. So'z ma'nosining ifodalanishida uning narsa va tushuncha bilan bog'liqligi yuzasidan qarashlar lingvistikada keng ommalashgan. Bu jihatdan so'z ma'nosining narsaga, tushunchaga va boshqa so'z ma'nosiga munosabati tufayli uning funksiyasi ham farqlangan. Natijada so'z ma'nosining denotativ, signifikativ va struktural funksiyalari shakllangan. Masalan, so'z ma'nosining asosiy funksiyalari sifatida: ma'no₁ ma'no₁ – tushuncha₁ (yoki ma'no₂ – narsa₂) – denotative funksiya; ma'no₁ – tushuncha₁ (yoki ma'no₂ – tushuncha₂) – signifikativ funksiya; ma'no₁ ma'no₂ (yoki ma'no₂ ma'no₁) – struktural funksiya tarzida izohlanadi [2,103].

So'z hamma vaqt o'z genetik ma'nosiga asoslanib yuzaga kelgan yoki yasalgan bo'ladi. Undan keyinchalik hosila ma'nolar ham yaratilishi mumkin. Shu so'zdan yana so'z yasalar ekan, uning genetik va hosila ma'nolaridan yasama ma'nolar yasaladi. O'zak so'zning semantik tarkibidagi leksik ma'nolar ham o'zaro aloqador, ya'ni bog'li bo'ladi. So'zning leksik ma'nolari ana shu o'zaro aloqadorligiga ko'ra uch tipga: bosh ma'no, asos ma'no, tobe ma'nolarga bo'linadi.

1. Bosh ma'no. So'z leksik ma'nolarining o'zaro bog'lanishlari markazida turgan leksik ma'nodir. Ya'ni so'zning leksik ma'nolari bevosita yoki bilvosita bog'lanib keluvchi, tutashuvchi leksik ma'no tilshunoslikda bosh ma'no deb qaraladi. Masalan, kurash so'zining leksik ma'nolari tarkibi va ularning o'zaro bog'lanishini ko'ramiz.

Kurash so'zining ma'nolari:

1. Yiqitish, g'olib chiqish uchun ikki kishi o'rtasidagi ma'lum qoidaga asoslangan olishuv, o'zaro bellashuv.
2. Yiqitishga asoslangan bellashuvlarning umumiy nomi, sportning turi.
3. Sportning biror turi bo'yicha kuch, mahorat, ustunlik ko'rsatish uchun bo'lgan musobaqa.
4. Qarama-qarshi bo'lgan tomonlar o'rtasidagi ustun kelish, g'alaba qilishga qaratilgan to'qnashuv, olishuv, jang.
5. Biror narsaga erishishga, biror maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat xatti-harakat.
6. Biror kimsa yoki narsaga yaratilgan faol qarshilik; uni yengish yoki yo'q qilish uchun bo'lgan harakat, olishuv.
7. ko'chma. Qarama-qarshi qarash, his-tuyg'u va shu kabilar to'qnashuvi, olishuvi [3,946].



Chizmada qayd etilganiday, kurash soʻzining 1-leksik maʼnosi bosh maʼno boʻlib, 2-3-4-5-6-leksik maʼnolar unga toʻgʻridan toʻgʻri bogʻlanib kelgan, 7-leksik maʼno 6-leksik maʼno orqali bosh maʼnoga bogʻlangan.


Bosh maʼno genetik maʼnoga teng kelsa, uni aniqlab olish oson. Chunki qolgan leksik maʼnolar genetik maʼnodan yuzaga kelgan hosila maʼnolar boʻladi. Hosila maʼnolar yuzaga kelishi nuqtayi nazaridan genetik maʼnoga bogʻlanganligi koʻrinadi. Biroq polisemantik soʻz affiksatsiya natijasi boʻlsa, bu fikrni tatbiq etib boʻlmaydi. Chunki yasama soʻzning semantik tarkibiga kiruvchi leksik maʼnolar yo oʻzak soʻz leksik maʼnolarning yasamasi, yo affiksning yasash imkoniyatlari natijasi boʻlish mumkin. Soʻz maʼlum tushunchani ifoda etish zaruriyati bilan yasaladi va uning leksik maʼnolari shu zaruriyati bilan yuzaga chiqadi.

Polisemantik yasama soʻz oʻz oʻzakning polisemantikligi hisobiga tarkib topadi. Bunda oʻzakning bosh maʼnosidan yasalgan maʼno yasama soʻzda ham bosh maʼno boʻlib qolaveradi. Yaʼni yasama soʻzlardagi yasama maʼnolarning oʻzaro bogʻlanishi markazi oʻzak soʻzning bosh maʼnosidan yasalgan maʼnoda boʻladi. Yasama soʻzning keyin yuzaga kelgan hosila maʼnolari yasama maʼnolarning birortasi taraqqiyoti natijasi boʻlib, oʻzini hosil qilgan yasama maʼnoga bogʻlanadi. Buning uchun kurashmoq, yaʼni kurash otidan yasalgan soʻzning semantik tarkibiga eʼtiborni qaratishga toʻgʻri keladi.

Kurashmoq soʻzining maʼnolari:

1. Bir-birini yiqitish gʻolib chiqish uchun maʼlum qoida boʻyicha olishmoq, oʻzaro bellashmoq.
2. Sportning biror turi boʻyicha bellashmoq, musobaqalashmoq.
3. Biror narsaga erishish, biror maqsadni roʻyobga chiqarish uchun harakat qilmoq, faoliyat koʻrsatmoq.
4. Biror kimsa yoki narsaga faol qarshilik koʻrsatmoq, uni yengish yoki yoʻq qilish uchun chora koʻrmoq, harakat qilmoq.

5. Jang qilmoq, olishmoq [3,947].



Kurashmoq so‘zining semantik tarkibini kurash so‘zining semantik tarkibiga qiyos qilinsa, kurashmoq so‘zining 1-2-3-5- leksik ma’nolar kurash so‘zi leksik ma’nolaridan yasab olingan. 4-hosila ma’no 5-yasama ma’nodan yuzaga kelgan hosila ma’nodir. Shunga ko‘ra kurashmoq so‘zining bosh ma’nosi belgilangan.

Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi deyarli yasama so‘zlarda o‘zak so‘zning bosh ma’nosi yasaliş jarayoni o‘tib, o‘z holatini saqlaydi. Ba‘zan yasama so‘zda o‘zak so‘zning bosh ma’nosi olinmagan bo‘ladi. Bu holda yasama so‘zning bosh ma’nosi o‘zak so‘zdagi hosila ma’nolardan birining yasamasi hisoblanadi. Ya’ni o‘zak so‘zning navbatdagi hosila ma’nolaridan biri so‘z yasalişida ishtirok etsa, u bosh ma’no hisoblanadi. Ko‘rdikki, bosh ma’no polisemantik so‘zning semantik doirasida olinib, sinxronik asosda belgilanadi. U so‘z leksik ma’nolari bog‘lanishi markazida turadi. Uning shakllarini so‘zning hosila ma’nosi yuzaga kelishi tizimi qonuniyati bilan bog‘liq. Hosila ma’no vazifadoshlikka ko‘ra yuzaga kelgan bo‘lsa, u deyarli bosh ma’no maqomini oladi. Leksikografik bosh ma’no so‘z leksik ma’nosining eng ko‘p maqomini oladi. Leksikografik bosh ma’no so‘z leksik ma’nosining eng ko‘p qo‘llanishi va empirik xarakteri bilan belgilanadi. Tarixiy lug‘atlarda genetik ma’nolarga teng keladi [4,173-178].

2. Asos ma’no. So‘zning bir yoki bir necha leksik ma’nosi bog‘lanib kelgan leksik ma’nodir. Asos ma’no referenti bilan unga bog‘lanib kelgan leksik ma’no referenti o‘zaro munosabatda bo‘lib, bunda asos ma’no referentiga boshqa ma’nolar referenti subyektiv anglash nuqtayi nazaridan tobe holatda ekanligi bilan xarakterlanadi. Ya’ni so‘zning bir yoki bir necha leksik ma’nosi hosil bo‘lishi uchun asos bo‘lgan leksik ma’no asos ma’no hisoblanadi. Masalan, yuqorida berilgan kurashmoq so‘zining semantik taraqqiyotiga e’tibor berish mumkin. Uning 1-leksik ma’nosidan 2-3-5- leksik ma’nolar, 5-leksik ma’nosidan 4-

leksik ma'no hosil bo'lgan. Shuning uchun 2-3-5- leksik ma'nolarga 1-leksik ma'no va 4-leksik ma'noga 5-leksik ma'no asos ma'no hisoblanadi.

Yasama polisemantik so'zning asos ma'nolari shu so'z uchun o'zak bo'lgan so'zning semantik taraqqiyotiga qarab aniqlanadi. Masalan, oqarmoq fe'li oq sifatdan yasalgan, fe'ldagi asos ma'nolar sifat turkumidagi asos ma'nodan yasalgan yasama ma'nolar bo'ladi.

Oqarmoq fe'lining ma'nolari:

1. Oq tusga kirmoq, oq tus olmoq.
2. Qonsizlanib yoki qoni qochib, qizillikni yo'qotmoq, rangi o'chmoq, bo'zarmoq.
3. O'ngmoq, rangini yo'qotmoq, aynimoq (ko'pincha, bo'yalgan narsalar haqida).
4. Yorug' bo'lmoq, yorishmoq.
5. Kosasi oqarmagan (topganiga baraka kirmagan) [5,501].

Oq so'zida 1- va 2- leksik ma'nolar asos ma'no. Oqarmoq fe'lidagi undan yasab olingan 3-va 4-yasama ma'nolar ham asos ma'no hisoblanadi. O'rni kelganda shuni ham aytish kerakki, polisemantik so'zlarning birinchi asos ma'nosi hamma vaqt bosh ma'noga adekvatdir. Ko'rdikki, asos ma'no shunday leksik ma'noki, polisemantik so'z leksik ma'nolarning o'zaro munosabatida unga boshqa bir yoki undan ortiq leksik ma'no to'g'ridan to'g'ri bog'lanib keladi. Bunday bog'lanishning shakllanishi uchun hosila ma'no yuzaga kelishi tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Polisemantik so'z tarkibidagi dastlabki asos ma'no bosh ma'noga adekvatdir.

3. Tobe ma'no. Asos ma'noga tobelanib, bog'lanib kelgan leksik ma'nodir. Tobe ma'noning tobelanishi nisbiy bo'lib, bosh ma'nodan boshqa har bir ma'no o'z o'rni bilan tobe ma'no hisoblanveradi. Masalan, yana kurashmoq so'zi semantik tarkibini eslashga to'g'ri keladi. Undagi 2-leksik ma'no 3-leksik ma'noga nisbatan asos ma'no bo'lgani bilan bosh ma'no, ya'ni 1-leksik ma'noga nisbatan tobe ma'nodir. Shu so'zdagi 4- va 5- leksik ma'nolar 1-leksik ma'noga nisbatan faqat tobe ma'no deb qaraladi. Umuman, qaysi leksik ma'no qaysi leksik ma'no qaysi leksik ma'nodan hosil bo'lsa, unga nisbatan hamma vaqt tobe ma'no maqomini oladi. Yasama so'zdagi yasama ma'nolar asos va tobelik maqomini o'zak so'zdan o'ziga ko'chiradi. So'zlardagi evfemistik va disfemistik leksik ma'nolar, figural va bog'li leksik ma'nolar polisemantik so'z tarkibida faqat tobe ma'no maqomida keladi. Ular asos ma'no bo'lishi mumkin emas.

Ko'rdikki, leksik ma'nolar, so'z semantik tarkibidagi o'zaro bog'lanib kelishiga ko'ra, bosh ma'no asos ma'no va tobe ma'nolarga bo'linib, bir-biridan o'zaro bog'lanishdagi tobe va asos bo'lish holati bilan farqalanadi. Bosh ma'nogina genetik ma'nodan iborat bo'ladi. U genetik ma'noning yasamasidan ham, hosila ma'nodan ham iboratligi kuzatiladi. Uning hosila ma'noda aks etishi genetik ma'noning etimologik ma'noga aylanishi bilan bog'ligidir. Bunday holda u etimologik ma'noga aylangan genetik

ma'noning dastlabki hosila ma'nosi ekanligi bilan xarakterlanadi. Asos ma'no o'ziga bir va undan ortiq hosila yoki yasama ma'no bog'lanib kelgan hosila yoki yasama ma'no bo'ladi. Figural va bog'li ma'nolar hamma vaqt tobe ma'nodir. Uning maqomi hosila ma'no yuzaga kelishi tizimidan kelib chiqish belgilanadi.

XULOSA

Leksik ma'nolarning semantik tarkibda o'zaro bog'lanishi ularning bosh ma'no, asos ma'no va tobe ma'nolarga ajralishini taqozo etadi. Bosh ma'no so'zning genetik ma'nosini tashkil etib, ba'zan hosila va yasama shakllarda ham o'z aksini topadi. Uning hosila ma'noda namoyon bo'lishi genetik ma'noning etimologik ma'noga aylanishi bilan bevosita bog'liqdir. Asos ma'no esa semantik tizimda bir nechta hosila yoki yasama ma'nolarni o'ziga birlashtirgan markaziy ma'no sifatida maydonga chiqadi. Figural va bog'li ma'nolar har doim tobe ma'no xarakteriga ega bo'lib, ularning semantik maqomi hosila ma'nolarning yuzaga kelish ketma-ketligi orqali belgilanadi. Natijada, leksik ma'nolar tizimi so'zning ichki semantik rivojlanishi va ma'no ko'lamining shakllanish jarayonini yaxlit holda aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: Fan, 2013. – B 144.
2. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. –T.: Barkamol fayz mediya, 2016. –B 194.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. – T.: G'afur G'ulom, 2023. – B1037 (E-K).
4. Mirtojiev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi. – T.: Mumtoz so'z, 2010. –B 288.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. III jild. –T.:G'afur G'ulom, 2022. –B 844. (L-P).
6. Manba: <https://wikipedia.org>
7. Manba: <https://uz.researchers>